

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TO‘RAYEVA MAFTUNA AKBAR QIZI

**FRANSUZ TILIDA NEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHI VA
QO‘LLANILISHINING LINGVOKOGNITIV JIHATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

To‘rayeva Maftuna Akbar qizi

Fransuz tilida neologizmlar shakllanishi va qo‘llanilishining lingvokognitiv jihatlarini..... 3

Тураева Мафтуна Акбар кизи

Лингвокогнитивные аспекты образования и функционирования неологизмов во французском языке. 27

Turaeva Maftuna Akbar qizi

Linguocognitive aspects of the formation and functioning of neologisms in the French language..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TO‘RAYEVA MAFTUNA AKBAR QIZI

**FRANSUZ TILIDA NEOLOGIZMLAR SHAKLLANISHI VA
QO‘LLANILISHINING LINGVOKOGNITIV JIHLTLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3103 raqami bilan ro'yxatga olingan.

- Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kiselyov Dmitriy Anatolevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Bobokalonov Odilshoh Ostonovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "13" mart soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz. Samarqand davlat chet tillar instituti bosh binosi).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 62729-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil "19" fevral da № 7 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.D. Qarshibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kognitiv yondashuv tilning turli sathlarini o'rganishda tobora faol qo'llanilmoqda. Neologizmlarni tadqiq etish esa ayniqsa dolzarb yo'nalishga aylanib, yangi leksik birliklarning shakllanishi ekstralisoniy – ijtimoiy, madaniy, texnologik va aqliy o'zgarishlarning tilga ta'siri sifatida talqin qilinmoqda. O'zgarib borayotgan dunyoni idrok etish va tilda kategoriyalash usullarini qayd etarkan, neologizmlar yangi voqelikni konseptlashtirish jarayonlarini aks ettiradi. Kognitiv yondashuv ularga shunchaki leksik yangi hosilalar sifatida emas, balki inson bilim va tajribalarining qayta anglashilishi jarayonida vujudga keluvchi yangi konseptual tuzilmalarning shakllanishi natijasi sifatida o'rganish imkonini beradi. Shu tarzda, fransuz tilidagi neologizmlarning tahlili til dinamikasini hamda zamonaviy jamiyat tafakkuri va madaniyati taraqqiyotining qonuniyatlarini namoyon etuvchi zaruriy yo'nalishga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida so'z hosil bo'lishining kognitiv asoslarini tadqiq etish dunyoning ko'plab mamlakatlari yetakchi ilmiy markazlarida faol rivojlanib, ularda til, tafakkur va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganishga fanlararo yondashuvlar shakllanmoqda. Olimlar neologizatsiya jarayoniga nutqiy ijod asosida yotuvchi aqliy modellar va konseptual sxemalarning namoyoni sifatida baho berishyapti. Kognitiv tilshunoslik doirasida konseptual derivatsiya, yangi ma'nolar hosil qiluvchi kognitiv tuzilmalarni modellashtirish hamda yangi leksik birliklarning shakllanishida metafora va metonimiyaning rolini tavsiflash kabi muhim masalalar o'z yechimini topmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar ijtimoiy va madaniy kontekstlar neologizmlarning kognitiv rag'batiga va ularning lisoniy tizimga singishiga ta'siri tahlilini amalga oshirmoqdalar. Binobarin, so'z hosil bo'lishida kognitiv yo'nalish inson ongining zamonaviy dunyodagi yangi voqeliklarni o'zlashtirishi va verballashtirishini teran tushunish uchun asos bo'lib xizmat qilyapti.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilm-fan va ta'lim sohalaridagi islohotlar avvalo bu sohalarda sifatni oshirishga va jahon fanining ilg'or yutuqlaridan unumli foydalanishga qaratilgan. Bu mamlakatimizda yuqori saviyali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha dolzarb muammolarning yechimida, jumladan xorijiy tillarni, xususan, kengayib borayotgan Fransiya va O'zbekiston hamkorligini hisobga olganda fransuz tilini o'rganish va o'qitishda ahamiyatlidir. Zero, "ilm-fan va ma'rifat nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatimizning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega"¹. Neologizmlar va ularning shakllanish mexanizmlari tahlili tilshunoslikning zamonaviy metodologiyalari rivojiga imkon yaratadi hamda yangi semantik birliklarni to'g'ri tushunish va uzatishga yordam beradi-ki, bu tarjima amaliyoti uchun ayniqsa muhimdir. Shu sababli fransuz tilidagi neologizmlarning lingvokognitiv tadqiqi nafaqat nazariy, balki zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi // <https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzиеevning-olij-mazlisga-murojaatnomasi>

ravishda mamlakatimiz va jahon tilshunosligi taraqqiyotiga hissa qo‘shib, amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tizimli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arb tilshunoslari o‘z tadqiqotlari orqali neologiya maqomini tilshunoslikning alohida sohasi, neologizmlarni esa mustaqil tadqiqot obyekti sifatida belgilab berishgan. Xususan, F.Goden va L.Gespen² neologizm istilohining zamonaviy ta’rifni taklif qilishgan, J.Humblye³ neologiyaning terminologik apparatini ishlab chiqqan, J.-B.Marsellesi⁴ neologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini sotsiologiyaviy va dialektologiya nuqtayi nazaridan o‘rgangan; fransuz tiliga yangi so‘zlar va tushunchalarning o‘zlashtirilishi hamda ularning tipologik tavsifi bo‘yicha L.Gilbert⁵ tomonidan boshlangan tadqiqotlar neologiya bo‘yicha ilmiy maktabga asos solgan zamonaviy tilshunos J.-F.Sablaylorning⁶ ishlarida davom ettirilmoqda.

Amerikalik va yevropalik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, rivojlantirilgan kognitiv tilshunoslikning turli nazariyalari hamda yo‘nalishlari neologizmlarning shakllanishiga asos bo‘luvchi kognitiv omillarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda. Jumladan, freym semantikasi nazariyasini ishlab chiqqan Ch.-J.Filmor⁷, konseptual metafora nazariyasiga asos solgan olimlardan G.Lakof⁸,

² Gaudin F., Guespin L. Initiation à la lexicologie française : de la néologie aux dictionnaires. – Bruxelles: Duculot, 2000. – 233 p.

³ Sablayrolles J.-F., Humbley J. La néologie terminologique. – Limoges: Lambert-Lucas, 2018 // Histoire Épistémologie Langage, tome 41, fasc. 1, 2019. – P.181–185.

⁴ Marcellesi J.-B. Chr. Néologie et fonctions du langage // Langages. Vol. 8, № 36. – Paris: Armand Colin, 1974. – P. 95–102.

⁵ Guilbert L. Théorie du néologisme // Cahiers de l’Association internationale des études françaises, № 25. 1973. – P. 9–29.

⁶ Sablayrolles J.-F. La néologie en français contemporain. Examen du concept et analyse de productions néologiques récentes. – Paris: Honoré Champion, coll. « Lexica », № 4. 2000. – 589 p.

⁷ Fillmore Ch. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm: Selected Papers from SICOL-1981. – Seoul: Hanshin Pub. Co., 1982. – P. 110–111.

⁸ Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 2003. – 256 p.

когнитив семантиканинг асосларини шакллантирган L.Talmi⁹, когнитив грамматиканинг mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan R.V.Langacker¹⁰, mental fazolar konsepsiyasini ilgari surgan va aynan shu nazariya asosida konseptual integratsiya nazariyasini ham shakllantirgan olimlar G.Fokonniye¹¹ va M.Turner¹² hamda boshqa olimlarning ishlari mazkur sohaning taraqqiyotiga beqiyos hissa qoʻshdi.

Когнитив tilshunoslikning rivojlanishiga bir qator rossiyalik olimlarning qoʻshgan hissasini alohida taʼkidlash lozim. Masalan, tilning semantik jihatlarini когнитив nuqtayi nazardan oʻrganib, bu sohada muhim tadqiqotlar olib borgan E.I.Golanova¹³, neologizmlarni oʻrganish ahamiyatini alohida taʼkidlab, zamonaviy rus tilshunosligida neologizmlarning leksikografik koʻlamini taʼkidlagan S.I.Alatorseva¹⁴, rus tilida neologizmlarning когнитив tahlilini oʻrgangan E.I.Marchenko¹⁵, rus tilida yangi soʻzlar yasalishining когнитив omillarini oʻrgangan L.Yu.Kasyanova¹⁶, zamonaviy fransuz tilida soʻz boyligining qanday rivojlanishini tahlil qilgan Ye.O.Oparina va I.V.Skuratov¹⁷; когнитив tilshunoslikning umumiy masalalari va ularga yangi yondashuvlarini oʻrgangan olima T.G.Skrebsova¹⁸, когнитив-diskursiv tadqiqotlar paradigmasini shakllantirishda muhim yangiliklarni taklif qilgan Ye.S.Kubryakova¹⁹, когнитив tilshunoslik va diskurs tahlili boʻyicha mutaxassislar L.A.Manerko va V.Z.Demyankov²⁰, когнитив semantika va tilning когнитив modellarini taʼriflab, izlanish olib borgan N.N.Boldirev²¹, когнитив tarjimashunoslik nazariyasi ustida tadqiqot olib borgan V.I.Zabotkina²², oʻzbek

⁹ Talmy L. *Toward a Cognitive Semantics*. Two volumes. – Cambridge: MIT Press, 2000; Language: *The Journal of the Linguistic Society of America* 78:3 2002. – 1000 p.

¹⁰ Langacker R. *Foundations of Cognitive Grammar*. Volume II. – Stanford, CA.: Stanford University Press, 2002. – 589 p.

¹¹ Fauconnier G. *Mental Spaces. Aspects of Meaning Construction in Natural Languages*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 240 p.

¹² Fauconnier G., Turner M. *The Way We Think. Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. – New York: Basic Books, 2002. – 440 p.

¹³ Голанова Е.И. Словообразовательная вариантность наименований приспособлений и механизмов // Социально-лингвистические исследования. – М.: Наука, 1976. – С. 167-180.

¹⁴ Алаторцева С.И. Проблемы неологии и русская неография: Дисс. ... докт. филол. наук.–СПб., 1998.–311 с.

¹⁵ Марченко Е.И. Когнитивные подходы к исследованию неологизмов // Вестник КРСУ. – Том 13. № 9. 2013. – С. 148–151.

¹⁶ Касьянова Л.Ю. Когнитивные факторы порождения нового слова. // Известия Волгоградского государственного педагогического университета, № 2, 2008. – С. 75-82.

¹⁷ Опарина Е.О., Скуратов И.В. Типологическая характеристика неологизмов в современном разговорном и деловом французском языке: лингвистический и социолингвистический аспекты. – М.: Моск. Гос. Обл. Ун-т, 2006. –272 с.

¹⁸ Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика: классические теории, новые подходы – М.: Издательский Дом ЯСК, 2018. – 391 с.

¹⁹ Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славян. культуры, 2004. – 555 с.; Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 156 с.

²⁰ Манерко Л.А. Современные тенденции развития отечественной, когнитивной лингвистики // Когнитивная лингвистика: новые проблемы познания: сб. науч. тр. – М.; Рязань, 2007. – С. 30-38; Демьянков В.З. Когниция и понимание текста // Вопросы когнитивной лингвистики. № 3, 2005. – С. 5-10.

²¹ Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную семантику: Курс лекций. Изд. 4-е, испр. и доп. – Тамбов: Изд. дом ТГУ им. Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.; Болдырев Н.Н. Язык и структура сознания // Когнитивные исследования языка. Выпуск XXIV. Личность. Язык. Сознание, № 24, 2016. – С. 35-48.

²² Заботкина В.И. Неологизация ментального лексикона: соотношение коммуникативных и когнитивных параметров // Когнитивные исследования языка / гл. ред. серии Н.Н. Болдырев; М-во обр. и науки РФ, Рос. акад. наук, Ин-т языкознания РАН, Тамб. гос. ун-т им. Г.Р. Державина, Рос. ассоц. Лингвистов-когнитологов. – М.: Ин-т языкознания РАН; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина - Вып. XXIX: Когниция и

tilshunosligi bilan yaxshi tanish bo'lgan rus tilshunosi, kognitiv semantika hamda leksikografiya sohasida muhim ilmiy ishlar olib borgan E.V.Raxilina²³ va boshqa tilshunoslarning qo'shgan hissalarini beqiyosdir.

Sh.S.Safarov²⁴ kognitiv metafora nazariyasi, konseptual birlik nazariyasi, til va tafakkur munosabatini, D.U.Ashurova²⁵, N.M.Jusupov²⁶ va boshqalar kognitiv uslubshunoslik masalalari, kognitiv tuzilmalar va kognitiv tilshunoslik metodologiya muammolarini o'rganib chiqishgan.

Mazkur tadqiqotlar tilshunoslik taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shib, keyingi ilmiy izlanishlar uchun puxta nazariy asos yaratmoqda. Til hodisalariga yangicha yondashuvlar esa yangi ilmiy istiqbollari uchun yangi ufqlarni ochadi. Xususan, kognitiv tilshunoslik va neologiya kesishgan nuqtada olib borilayotgan tadqiqotlar yangi konseptlarning til va tafakkurda ifodalanishiga oid kognitiv mexanizmlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, neologizmlarni yangi konseptual birliklarning til tizimidagi ifodaviy shakli sifatida tadqiq etish bugungi kunda dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining "Kognitiv tilshunoslikda til va nutq birliklari tahlili" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning shakllanishi va funkcionallashuvi jarayonida ishtirok etuvchi kognitiv mexanizmlarni aniqlash va ularni tizimli tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

zamonaviy lingvistik paradigma doirasida kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan neologizmlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish;

zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning shakllanishiga xos asosiy usullar va so'z yasash modellarini belgilash;

konseptual integratsiya nazariyasi (blending theory) asosida yangi so'zlarning yuzaga kelishiga xos kognitiv mexanizmlar va bosqichlarni tavsiflash;

neologizmlarning paydo bo'lishini belgilovchi ekstralingvistik omillarni aniqlash hamda zamonaviy fransuz tilida neologizmlar bilan eng faol to'ldirilayotgan asosiy konseptual domenlarni belgilash;

коммуникация в лингвистических исследованиях: сборник научных трудов / отв. ред. вып. В.З. Демьянков. – 2017. – С. 71-79.

²³ Рахилина Е.В. Лингвистика конструкций / Отв. ред. – М.: Издательский центр «Азбуковник», 2010. – 584 с.; Рахилина Е.В., Резникова Т.И., Карпова О.С. Семантические переходы в атрибутивных конструкциях: метафора, метонимия и ребрендинг // Е.В. Рахилина (ред.). Лингвистика конструкций. – М.: Азбуковник, 2010. – С. 396-455.

²⁴ Safarov Sh.S. About functions of metaphor // Global and national values along Great Silk Road: language, education and culture. Proceedings of the international scientific conference. – Samarkand-Shanghai: Samarkand State Institute of Foreign Languages & Samarkand Institute of Confucius, 2021. – В. 35-37; Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Сафаров Ш. С. Метафора ходисаси талкинига янгича ёндашув имкониятлари // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – № 1 (74); – 2020. – В. 7-11.

²⁵ Ашурова Д. У. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистики // Филология масалалари, № 1, 2003. – С. 41–45.

²⁶ Джусупов Н.М. Когнитивно-стилистические основы выдвижения в англоязычном художественном тексте: Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 330 с.

zamonaviy fransuz diskursida (medial, ijtimoiy va raqamli muhitda) neologizmlarning funkcionallashuv xususiyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida XXI asr fransuz tilidagi neologizmlar majmuasini tashkil etadi; unga xorijiy tillardan kirib kelgan leksik birliklar hamda frankofon hamjamiyatlar doirasida yuzaga kelgan neologizmlar tanlangan (tadqiqot materiali *Larousse* va *Petit Robert* lug'atlari asosida shakllantirilgan).

Tadqiqotning predmetini zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning shakllanishi va funkcionallashuviga xos lingvokognitiv mexanizmlar, neologizatsiya jarayonida ekstralingvistik omillarning ta'siri hamda derivatsion modellar spesifikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kontekstual, lingvokognitiv, konseptual va qiyosiy tahlil, shuningdek statistik ma'lumotlarni qayta ishlash elementlaridan iborat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi usullar majmuidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning shakllanishi kognitiv tabiatga ega ekanligi, bu voqelikni qayta konseptualizatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan yangi konseptual birliklarning verbal ifodasi sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan, neologizatsiya faqat lingvistik jarayon emas, balki konseptualizatsiya, kategoriyalash va bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm ekanligi dalillangan;

zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning eng mahsuldor shakllanish modellari va mexanizmlari tizimlashtirilib, o'zlashma so'zlar, kalkalash, affiksatsiya, so'z qo'shish, kontaminatsiya, shuningdek mavjud leksik birliklarning semantik rivoji kognitiv va til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida asoslangan;

ilk bor konseptual integratsiya nazariyasi (blending theory) doirasida neologizmlarning shakllanishini tahlil qilishga mo'ljallangan lingvokognitiv tahlil algoritmlari ishlab chiqilgan, mazkur yondashuv esa zamonaviy fransuz neologizmlari (*Merkozy*, *démocrature*, *couloir de la mort* va boshqalar) materialida yangi mental va leksik konstruksiyalar hosil bo'lish mexanizmlarini ochib berishga imkon yaratganligi aniqlangan;

zamonaviy fransuz tilida neologizatsiya jarayonlarini faollashtiruvchi ekstralingvistik omillar tasniflanib, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamlashtirish jarayonlari hamda global inqiroz holatlari (pandemiyalar, ekologik va siyosiy jarayonlar) kabilar yangi konseptlarning shakllanishi va ularning til orqali ifodalanishiga turtki beruvchi omillar ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy fransuz tili tizimida neologizmlarning maqomi va funksional xususiyatlari aniqlashtirilib, ularni anglashning lingvokognitiv mexanizmlari ochib berilgan;

neologizm-neosemiyalar va neokonseptlar tizimlashtirilib, konseptual integratsiya nazariyasi doirasida shakllanadigan kognitiv obrazlar tavsiflangan;

neologik obrazlarning jamiyat hayotining turli sohalaridagi roli belgilanib, ularning funksionallashuvida kuzatiladigan innovatsion usullar hamda zamonaviy fransuz tilida til orqali ifodalanayotgan yangi konseptlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda foydalanilgan tahlil usullari va yondashuvlari zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga mosligi va metodologik jihatdan asoslanganligi, tadqiqot materiali sifatida ishonchli manbalardan va ishonchli lug'atlardan foydalanilganligi, o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, xulosalarning mantiqiy bayon etilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqot fransuz tilidagi neologizmlarning lingvokognitiv tahlili orqali til va tafakkurning o'zaro aloqasini yoritishga hissa qo'shadi hamda kognitiv tilshunoslik nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy xulosalar va tahlillar neologizmlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan fransuz tilidagi neologizmlarni o'rgatish, tarjima qilish hamda ularni lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish bo'yicha o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyalar va dars materiallarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, bu natijalar tilshunoslik, tarjimashunoslik, kognitiv fanlar va madaniyatlararo muloqot almashinuvi sohalarida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot natijalari xorijiy tillarni, xususan fransuz tilini o'qitishda, tarjima jarayonlarida, shuningdek, zamonaviy leksik birliklarni chuqur tushunish va izohlashga doir o'quv-metodik materiallar tayyorlashda keng qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanma hamda takliflar asosida:

zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning shakllanishi kognitiv tabiatga ega ekanligi, bu voqelikni qayta konseptualizatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan yangi konseptual birliklarning verbal ifodasi sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan, neologizatsiya faqat lingvistik jarayon emas, balki konseptualizatsiya, kategoriyalash va bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini aks ettiruvchi kognitiv mexanizm ekanligi dalillangan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutining Erasmus+dasturining 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHT-JP raqamli "Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian Universities: CLASS" mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 17-iyuldagi 2102/02- sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijasida olingan xulosalar, ya'ni token-neologizmlarni avtomatik ajratish, aniqlash va belgilash, shuningdek, matnlarni semantik anglash algoritmlarini takomillashtirish imkonini bergan ;

zamonaviy fransuz tilida neologizmlarning eng mahsuldor shakllanish modellari va mexanizmlari tizimlashtirilib, o'zlashma so'zlar, kalkalash, affiksatsiya, so'z qo'shish, kontaminatsiya, shuningdek mavjud leksik birliklarning semantik rivoji kognitiv va til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida asoslangan ilmiy yangilik va xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda

amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 raqamli “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi ishlanmalarida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 4-iyuldagi 04/3039- sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari jahon tilshunosligida va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jarayonida, zamonaviy ijtimoiy-lingvistik ehtiyojlarga mos bo’lgan holda, ayniqsa, Qarshi davlat universitetida xorijiy tillarni (jumladan, ingliz va fransuz tillarini) o’qitish hamda tarjima faoliyatini takomillashtirish yo’lida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan ;

ilk bor konseptual integratsiya nazariyasi (blending theory) doirasida neologizmlarning shakllanishini tahlil qilishga mo’ljallangan lingvokognitiv tahlil algoritmlari ishlab chiqilgan, mazkur yondashuv esa zamonaviy fransuz neologizmlari (Merkozy, démocrature, couloir de la mort va boshqalar) materialida yangi mental va leksik konstruksiyalar hosil bo’lish mexanizmlarini ochib berishga imkon yaratganligi aniqlangan xulosalardan Samarqand Fransuz Alyansida 2025-yil 21-martdan 21-aprelgacha bo’lib o’tkan Frankofoniya haftaligi tadbirlarida foydalanilgan (Samarqand Fransuz Alyansining 2025-yil 30-apreldagi 02-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu izlanishlar natijalari Samarqand Fransuz Alyansida joriy etilayotgan tadbirlar, jumladan, doira suhbatlari, qo’llanilayotgan uslubiy-metodik yondashuvlar hamda lug’atlardan to’g’ri foydalanish bo’yicha yo’riqnomalar ishlab chiqish va ularni amaliyotda targ’ib etish jarayonida keng qo’llanilgan ;

zamonaviy fransuz tilida neologizatsiya jarayonlarini faollashtiruvchi ekstralingvistik omillar tasniflanib, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamlashtirish jarayonlari hamda global inqiroz holatlari (pandemiyalar, ekologik va siyosiy jarayonlar) kabilar yangi konseptlarning shakllanishi va ularning til orqali ifodalanishiga turtki beruvchi omillar ekanligi isbotlangan xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokanali kompaniyasida 2025-yil 29-aprel kuni “Samarqand” radiokanalida e’fira uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 2-maydagi 01-07/179-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yangi so’zlarning yuzaga kelishini faollashtiruvchi ekstralingvistik omillar ta’sirida, fransuz konseptosferasida milliy o’zlikni saqlash uchun ingliz tilidan kirib kelayotgan tushunchalarning miqdorini kamaytirish va tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi dunyo tasvirlarini tilda ifoda etish jarayonlarini o’rganishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy ma’ruza shaklida aprobatsiyadan o’tkazilgan bo’lib, ular 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 4 tasi O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya tadqiqotlarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida, 4 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning asosiy maqsadi va vazifalari, ob‘yekti, predmeti va o‘rganish materiali, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, sinovdan o‘tkazilishi, natijalari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Neologizmlarni o‘rganishda lingvistik va lingvokognitiv yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida neologizmlarning o‘rganilish tarixi, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijalari, tilshunos olimlarning mavzuga doir nazariy qarashlari bayon etilgan. Shuningdek, fransuz tilidagi neologizmlarni lingvokognitiv jihatdan tadqiq qilishning imkoniyatlari, tadqiqot tajriba va usullari, ularning tipologiyasi hamda tasnifi tartibi aniqlangan. Neologizmlar hosil bo‘lishining lingvistik omillaridan tashqari, ularning kognitiv xususiyatlari va yangi so‘zlarni kognitiv lingvistikaning turli nazariyalari doirasida o‘rganish istiqbollari oydinlashtirilgan. Tildagi neologizmlarni zamonaviy kognitiv lingvistikaning samarali yo‘nalishlaridan biri – konseptual integratsiya nazariyasi (ing. Conceptual Blending Theory) doirasida tadqiq qilishning samarali ekanligi dalillangan.

Bobning *“Tilshunoslikda yangi so‘zlar ustida olib borilgan izlanish aspektlari”* nomli birinchi faslida lingvistikada neologizmlarni alohida hodisa sifatida o‘rganishning ilmiy asoslari, yangi so‘zlarning tasnifini yaratish, ularni tipologik jihatdan tadqiq etish hamda kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan talqin qilish salohiyati ochib berilgan.

Jahon tilshunosligida neologizmlar uzoq vaqt davomida an‘anaviy ilmiy paradigma doirasida o‘rganildi. Ushbu an‘anaviy tadqiqotlar etimologik, morfologik, semantik va lingvomadaniy usullardan iborat bo‘ldi. Ayniqsa, muammoga etimologik yondashuv neologizmlarning kelib chiqishi, yangi so‘zlarning lingvistik ildizlari, ularning shakllanishi hamda tarixiy rivojlanishini yoritishga qaratilgan. Yangi so‘zlar tadqiqiga bunday yondashuv xususan, ekstralingvistik omillar va tillararo aloqalar tilning leksik tarkibiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishini teran anglash imkonini beradi.

Jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini anglash, lisoniy merosni saqlash va boyitish, o‘zaro muloqot samaradorligini oshirish, tilning rivojlanish texnologiyalarini optimallashtirish hamda neologizmlarni atroflicha tahlil qilish, ayniqsa, globallashtirish va madaniyatlararo almashinuvning kuchayib borishi sharoitida tilning evolyutsiyasi jarayonini yaqqol kuzatishga imkoniyat yaratadi. Yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi nafaqat ma‘lum bir til lug‘atining boyishini, balki muayyan til sohiblari tomonidan yangi hodisa va voqealarning nomlanishi, o‘zlashtirilishini hamda qo‘llanuvga kiritilishini aks ettiradi. Shu tarzda, neologizm – bu yaqinda paydo bo‘lgan va ma‘lum tilga yangi kirib kelgan yoki yangi hodisa, tushunchani nomlashga, ifodalashga xizmat qiladigan so‘z yoxud so‘z birikmasi, neologizmlarni o‘rganadigan fan esa – neologiya deb nomlanadi.

Yangi soʻzlarni har tomonlama ilmiy oʻrganish – dinamik va doimiy rivojlanib borayotgan tadqiqotlar sohasidir. Anʻanaviy yondashuvlar neologizmlarning shakllanishi jarayonini va fanda yoki hayotiy sohalarda qoʻllanilish holatlarini tushinishda muhim rol oʻynaydi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish va innovatsiyalar esa ushbu sohada yangi istiqbollarni ochadi. Shu sababli, maʼlum tilning taraqqiyotini samarali tadqiq va tahlil qilish uchun anʻanaviy va zamonaviy usullarni uygʻunlashtirish maqsadga muvofiq boʻlib, neologizmlar nafaqat anʻanaviy lingvistikada, balki eng zamonaviy lingvistikaning yangi yoʻnalishlari, jumladan, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter va kognitiv lingvistika doirasida ham oʻrganiladi.

Ishning “Fransuz tilida neologizmlar tipologiyasi va tasnifi” nomli ikkinchi faslida neologizmlarni tasniflashda asos qilib olingan mezonlarni shakllantirgan tilshunos olim L.Gilbert²⁷ qarashlariga asoslangan holda yangi soʻzlar tarkibini fonetik, sintaktik, semantik, grafik va oʻzlashgan soʻzlar kabi guruhlariga tasniflandi.

J.-F.Sablerol²⁸ fransuz tilidagi neologizmlarning tipologik tahlilini amalga oshirarkan, birinchilaridan klassik trixotomiyani eslatib oʻtadi: shakliy (formel) yoki morfologik, semantik (sémantique) va chet tilidan kirib kelgan soʻzlar (emprunt). Ushbu olim uchun semantik neologiya – bu mavjud boʻlgan boshqa belgili leksikaga yangi maʼno berishdan iborat jarayon boʻlsa, shakliy neologizmlar soʻzlarning shakl oʻzgarishi bilan bogʻliq yasaliş usullarini qamrab oladi.

Ushbu tipologik tahlillar natijasida shu maʼlum boʻldiki, anʻanaviy lingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan, fransuz tilidagi neologizm qatlamlari chetdan oʻzlashgan soʻzlar, dialektlar va maʼlum soʻz yasaliş modellariga koʻra: morfologik (derivatsiya, qoʻshma soʻzlar); sintaktik (atributiv iboralar); semantik (maʼno torayishi va kengayishi yoki oldindan mavjud soʻzlarda maʼno koʻchishi) hosil boʻlgan soʻzlar bilan boyib boradi. Tadqiqotimiz obʻyekti boʻlgan soʻz qatlamini oʻrganishga zamonaviy yondashuvlar (bu yerda kognitiv tilshunoslik) yuqorida sanab oʻtilgan neologizmlarning paydo boʻlishiga taʼsir qilgan kognitiv omillarni, yangi soʻzlarning tilda aks etguncha kechgan jarayonlar va qoʻllanuvga kirgach til sohiblari aql-idrokida sodir boʻladigan hodisalarni oʻrganishga yordam beradi. Shulardan kelib chiqib, kognitiv tilshunoslikda yangi soʻzlarga oid ilmiy izlanishlarni anaʻnaviy neologizmlar tipologiyasiga asoslangan holda, zamonaviy yondashuvlar bilan uygʻunlashtirildi.

Ishning “*Neologiyaning kognitiv jihatlari*” nomli uchinchi faslida yangi soʻzlarni kognitiv tilshunoslik va neologiyaning kesishgan nuqtasida oʻrganish omillari aniqlashtirilgan. T.G.Skrebsova²⁹ning fikricha, kognitiv tilshunoslik sohasi oʻz oldiga qoʻyadigan asosiy savollar insonning olam va odam haqidagi bilimlari, uning oʻz bilim-tajribasi darajasini idrok qilishi va bu bilimlarni faollashtirish yoʻllari hamda foydalanish usullari kabilardir. L.M.Borisenkova³⁰ fikriga koʻra,

²⁷ Guilbert L. Théorie du néologisme // Cahiers de l'Association internationale des études françaises. – № 25; – 1973. – P. 9-29.

²⁸ Sablayrolles J.-F. De la néologie syntaxique à la néologie combinatoire // Langages. № 183 (3). – Paris: Armand Colin, 2011. – P. 39-50.

²⁹ Скребцова Т. Г. Когнитивная лингвистика: классические теории, новые подходы. – М.: Издательский Дом ЯСК, 2018. – 391 с.

³⁰ Борисенкова Л. М. Когнитивные аспекты словообразования (на материале немецкого языка). – М., 2007. – 112 с.

inson dunyoni doimiy ravishda perseptiv tarzda o'rgansa ham, atrof olam haqidagi ma'lumotlarning asosiy qismini lisoniy vositalar orqali, nutq va kundalik muloqot orqali qabul qiladi va uzatadi. Konseptual xususiyatlar berilgan tushunchani ifodalovchi lisoniy birliklarning ma'nolari, ularning lug'atdagi ifodalari va nutq kontekstlari orqali aniqlanadi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda konseptual tahlilni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Konseptual tahlil ob'yekti – bu alohida so'zlar, iboralar, propozitsiyalar hamda ularning aniq iboralar shaklida voqelanishi orqali ifodalayotgan ma'no va tushunchalaridir. Shuningdek, bu tahlil metodi til tizimida va nutqda konseptlarni ifodalashning barcha mavjud lisoniy vositalarini qiyoslash, konseptlarning asosiy mazmunini, ularning tasniflarini, lisoniy ma'nolarning shakllanishidan boshlab, lisoniy materiallarni tashkil etish tamoyillarini aniqlashgacha, lingvistik kategoriyalarning shakllanishi asoslarini o'rganish imkonini beradi.

Konseptlashtirish voqea-hodisalarni, shu jumladan, yangi hodisalarni keng qamrovda anglash imkonini beradi. Kategoriyalash esa predmetlar va voqelik hodisalarini umumlashtirilgan tushunchalar – kategoriyalar doirasida izohlaydi. Shu bilan birga, T.G.Skrebsova fikriga ko'ra, bilish jarayoni sifatida kategoriyalash – til yordamida axborot almashinuvi, axborotni individning mavjud bilimlari tizimi bilan bog'lash, predmetlar va hodisalarni o'xshash predmetlar va hodisalar guruhi bilan identifikatsiyalash, kategoriyalash va tasniflashdir. G.Lakof³¹ esa, kategoriyalash jarayonini o'rganish doirasida, uning asosini inson uchun umumiy bo'lgan harakatlar, muayyan kognitiv modellarda namoyon bo'ladigan kognitiv mexanizmlar tashkil etishini ta'kidlaydi va kognitiv modellarni 4 turga ajratadi. Ularga propozitsional, obrazlarning sxematik, metaforik va metonimik modellari kiradi hamda ular o'z tuzilishi, xususiyatlari va prototiplariga ko'ra farqlanadi. Kognitiv mexanizmlar esa bilimlar tuzilmalari bilan muayyan harakatlarning modellari sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslik nazariy jihatlarining ijodiy rivoji hisoblangan ana shunday mexanizmlardan biri bu – konseptual integratsiyadir (Conceptual Blending Theory). Mazkur nazariya yangi so'zlarning hosil bo'lish mexanizmlari nuqtayi nazaridan birinchi bobning *“Konseptual integratsiya nazariyasi doirasida yangi so'zlar yasalishi”* deb nomlangan to'rtinchi faslida batafsil o'rganildi.

Konseptual integratsiya ko'p sathli va ko'p qirrali hodisa bo'lib, bu nazariyani qo'llash ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Ushbu nazariyaning mualliflari G.Fokonniye va M.Turnerlar shu hodisaga e'tibor qaratib, uni o'rganishning asoslarini yaratishdi. Ularning tadqiqotlari kognitiv amallar mexanizmini yanada teran va har tomonlama tushunish hamda uning amal qilish doirasini kengroq qamrab olishdan iborat.³²

Taklif etilayotgan yondashuv kognitiv tilshunoslikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, inson tafakkuri va tiliga bog'liq konseptual tuzilmalarni tushunishda muhim rol o'ynaydi. Olimlar tomonidan taklif etilgan sxemaga ko'ra,

³¹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*. – Chicago: The University of Chicago Press, 2003. -P. 31-32.


³² Fauconnier G., Turner M. *The Way We Think. Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. – New-York: Basic Books, 2002. – P.183-204.

konseptual integratsiya jarayoni kamida to'rtta asosiy makondan (espaces) iborat bo'lib, ular quyidagilar:

1. *Umumiy maydon/makon (espace générique)* – bu barcha kirish maydonlari uchun umumiy makon bo'lib, unda yangi so'zlar orasidagi umumiy jihatlar va o'zaro bog'liqliklar aniqlanadi.

2. *Kiruvchi yo'lak yoki fazolar (inputs yoki espace d'entrée 1 va 2)* – umumiy kontekst yoki dunyoqarashga taalluqli bo'lgan konseptual sohalardan olingan ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan tuzilmalardir. Har bir kirish makoni ma'lum bir axborot yoki tasavvur bilan bog'liq bo'lib, ular o'zaro qiyoslanadi va umumiy hamda farqli tomonlari aniqlanadi.

3. *Birlashtiruvchi makon (espace intégrant)* – kiruvchi yo'laklardagi ma'lumotlar shu maydonda birlashib, yangi konseptual tuzilmani hosil qiladi. Bu jarayonda yangi kontekst, yangi tushunchalar va yangi metaforalar shakllanishi kuzatiladi. Birlashtiruvchi makonda inson tafakkurida yangi konseptual strukturalar hosil bo'lib, ular lisoniy vositalarda aks etadi. Ushbu makonni ifodalash uchun "integrallashgan makon" yoki "blend" atamasi ham keng qo'llaniladi.



1-rasm. G.Fokonniye va M.Turnerlarning konseptual integratsiya nazariyasi mexanizmi

Shuningdek, F.Grea³³ yaratgan diagrammali tahlildan foydalanib, neologizmlar orasida konseptual integratsiyaning namoyon bo'lishini ajratib ko'rsatish mumkin. U kiruvchi yo'laklarning har birida birlashtiruvchi makonga oid xususiyatlarni tahlil qilar ekan, **résultat (natija)**, **agent (ta'sir qiluvchi, sub'yekt)**, **patient (ta'sir oluvchi, ob'yekt)** va **action (ta'sirga oid harakatlar)** kabi tarkibiy elementlarning o'xshatish va metaforik ko'chim orqali bog'lanishini ko'rsatadi :

³³Gréa Ph. La théorie de l'intégration conceptuelle appliquée à la métaphore et la métaphore filée : Thèse de doctorat en linguistique. – Paris X : Université de Nanterre, 2001. – P. 121.

1. Résultat (Natija) – har qanday jarayon yoki harakat muayyan natijaga olib keladi.


2. Agent (ta'sir qiluvchi) – harakatni amalga oshiruvchi shaxs yoki subyekt bo'lib, u har ikki yo'nalishda ham muayyan vazifani bajaradi. U tashabbuskor yoki faol ishtirokchi bo'lib, natijani yuzaga keltiradi.

3. Patient (ta'sir oluvchi) – harakatning bevosita ta'siriga uchraydigan element, narsa yoki shaxs.

4. Action (Harakat) – jarayon yoki faoliyat shakli bo'lib, har ikki yo'nalishda ham asosiy bog'lovchi omil hisoblanadi. Bir holatda bu jismoniy harakat sifatida ifodalansa, boshqa holatda xatti-harakat yoki qaror qabul qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunos olim D.A.Kiselyov³⁴ aytib o'tganlaridek, blending jarayonida yaxlit konseptlar emas, balki ularning elementlari ajratib olinadi.

Shunday qilib, konseptual integratsiya nazariyasi til va ong o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun muhim metodologik asosni taqdim etadi hamda inson tafakkurining murakkab va dinamik tabiatini tushunishga yordam beradi. Bizningcha, quyidagi diagramma (2-rasm), yetuk tilshunos olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yuqoridagi sxemalarni umumlashtirgan hamda to'ldirgan holda, integratsiya jarayonini neologizmlarning shakllanishi misolida yaqqol tasvirlab bera oladi.



2-rasm. Konseptual integratsiya nazariyasi doirasida neologizmlar yasalishi mexanizmi

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Neologizmlar shakllanishining lingvistik model va kognitiv mexanizmlari** tahliliga bag'ishlangan bo'lib, chet tilidan o'zlashayotgan so'z nafaqat yangi shakl yoki ma'noga ega neologizmni, balki yangi hodisa, reallik va konseptlarni ham o'zida mujassam etadi. Tahlil jarayonida 34 xil tildan o'zlashgan so'zlardan ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar ko'proq ulushga egaligi aniqlandi va ularning ta'sir doirasini o'rganish uchun, boshqa xorijiy tillardan alohida ajratib tadqiq qilindi. Umuman olganda, ingliz tili konseptosferasi frankofonlar konseptosferasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda, chunki ko'plab

³⁴ Киселёв Д.А. Реализация концептуальной метафоры в прозаическом тексте. // Хорijiy filologiya :til, adabiyot, ta'lim. №2 (75), 2020. –В. 5–13.

konseptual birliklar ingliz tilidagi konseptosferaning ta'siri ostida o'zlashtirilgan yoki o'zgartirilgan.

Bobning "Fransuz tilidagi neologizmlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillar" deb nomlangan birinchi faslida o'zlashgan so'zlar bevosita (shakli va ma'nosi bilan) yoki bilvosita (kalkalash, semantik kengayish) yo'li bilan tilga kirib kelishi aniqlandi. Ko'chirilgan so'z yoki ibora ko'rsatilgan tilga integratsiyalashib, qo'llanuvda bo'lishi uchun u to'liq leksiklashuv jarayonidan o'tishi kerak. Kalkalash bosqichlarida so'zlar turlicha moslashadi va o'zgaradi, natijada kalkalash ham o'z navbatida turlarga bo'linadi. Misol uchun: leksik kalkalash, ya'ni prefiks yoki suffiksning saqlanishi, so'zning asosini tarjima qilish usuli yordamida hosil bo'lgan yangi so'zlar: ingliz tilidagi "*bioreactor*" termini "*bioréacteur*"ga, ingliz tilidagi "*beta reader*" so'zi esa "*bêta-lecteur/trice*"ga o'zgarishi holatlari. Ba'zi holatlarda esa so'zning asosi saqlanib, unga qo'shilgan prefiks yoki suffiks tilning ichki tartib qoidasiga binoan o'zgaradi. Masalan ingliz tilidagi "*webinar*" so'zi "*webinaire*" ko'rinishida kalkalanadi.

Frankofon davlatlar, jumladan, Kvebek, Belgiya, Shveysariya, Afrika mintaqasining bir qator davlatlarida fransuz tilida so'zlashuvchi hududlar o'ziga xos konseptosferasi bo'lib, ularning ta'sirida fransuz tili neologizmlar ("*quatre-heures*") shakllanmoqda yoki mavjud atamalar yangi semantik ma'no ("*académique*") kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning Kvebek tili tomonidan moslashtirilishi orqali fransuz tiliga kirib kelishi muhim rol o'ynayotganini qayd etish mumkin. Kvebek fransuz tili boshqarmasi fransuz tiliga yangi so'zlar o'zlashishi ulushini, ayniqsa, ingliz tilidagi so'zlarni qisqartirib, yangi so'zlarni shakllantirish yoki kalkalash sonini ko'paytirishga intiladi. Misol uchun, Kvebek idorasi tomonidan ingliz va italyanча "*podcast*", "*to upload*", "*newsletter*", "*partigianeria*" so'zlarini "*le balado*", "*téléverser*", "*infolettre*", "*la partisanerie*" shaklida fransuz tiliga kalkalab tarjima qilingan.

Belgiyada esa tanaffus paytida bolalar tomonidan soat o'n atrofida iste'mol qilinadigan yemak "*dix-heures*" (o'n soat), tushdan keyin iste'mol qilinadigan yemak "*quatre-heures*" (to'rt soat) deb ataladi. Fransiyada tushdan keyin iste'mol qilinadigan ovqatni nomlash uchun "*goûter*" termini qo'llanilib kelgan bo'lsa, endilikda har ikki atama ham qo'llanilmoqda. Ushbu misol shuni ko'rsatadiki, Belgiya fransuzabon konseptual maydonida ushbu taom nomini, uni iste'mol qiladigan vaqtga bog'lab nomlangan bo'lsa, Fransiyadagi fransuzabonlar ushbu taomni iste'mol qilish harakatiga bog'lagan.

Shveysariyadagi fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar tahlil qilinganda, nemis madaniyati va eski fransuz tilining hozirgi tilga ta'sirini ko'rish mumkin. Masalan, "*aguiller*" atamasining etimologiyasi qadimgi fransuz tilidan olingan. Sindirmoq harakatini ifodalovchi "*ebriquer*" fe'li nemischa "*brechen*" fe'lidan kelib chiqqan.

Afrika mintaqasining fransuzabon millatlaridan o'zlashgan aksariyat so'zlar endogen realiyalar (madaniy, iqlimiy, toponim va h.z.)ga oid terminlardir. Madaniyatlararo aloqalar, immigratsiya, din, urf-odatlar, turmush tarzi, gastronomiya va boshqa omillar ta'siri bir necha konseptosferalarning o'zaro qorishib ketishiga olib kelgan. Misol uchun, Fransiyada afro-musulmonlar ko'pchilikni tashkil etganligi sabab, "la fatiha" terminining madaniy aspekti nikoh tuzish udumi ma'nosida keng tushinila boshlagan.

Fransuz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar xalqlari tilida turli sohalarda qoʻllaniladigan neologizmlar, yozilishi bir xil, ammo olam manzarasini turlicha aks ettiradigan semantik maʼnoga ega soʻzlar mavjud. Afrikada “l’alphabet” atamasi “alifbo” hamda oʻqish va yozishni biladigan shaxsga nisbatan “savodli” maʼnolarida qoʻllaniladi. Ushbu atamaning ikkinchi maʼnosi fransuz tiliga neosemiya tarzida oʻzlashgan va boshida “oʻqish va yozishni biladigan afrikalik” maʼnosida tushunilgan. Yaʼni har bir oʻzlashayotgan konsept, har bir tasavvur, inson ongida tahlil qilinadi, izohlanadi, tilda mavjud konseptlar bilan oʻxshash va farqli jihatlariga koʻra kategoriyalarga ajratiladi, soʻngra tilda oʻz aksini topadi va ushbu aks etgan yangi konsept maʼlum oʻzgarishlarga uchrab, mavjud konseptual maydonda yangi tasvirni yaratgan holda oʻzlashadi.

Bobning “*Semantik taraqqiyot neologizmlarning yaratish usuli sifatida*” deb nomlangan ikkinchi faslida soʻzlarning semantik rivojlanishi tarixiy, ijtimoiy, lisoniy va psixologik omillar taʼsirida yuz beradigan murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayonligi isbotlandi. Bu jarayon natijasida neologizmlar va neosemiyalar shakllanadi, yaʼni mavjud soʻzlarga yangi maʼno yuklanadi yoki ular asosida butunlay yangi tushunchalar paydo boʻladi. Semantik neologiyalar koʻpincha metafora, metonimiya, antonomaz va evfemizm kabi maʼno koʻchish mexanizmlari orqali shakllanadi. Masalan, fransuz tilidagi “*couloir*”, “*tsunami*”, “*Bounty*”, “*Bisounours*”, “*fachosphere*”, “*Alumnis*”, “*socialiser*” kabi soʻzlar turli kontekstlarda semantik kengayish va torayish orqali yangi konseptual maʼnolarni anglatadi. Natijada, semantik taraqqiyot til taraqqiyotining muhim mexanizmlaridan biri boʻlib, u inson tafakkuri va dunyoqarashidagi oʻzgarishlarni aks ettiradi. Kognitiv yondashuv esa neologizmlarning shakllanish hodisasi, jamiyat tafakkuriga taʼsirini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, “*couloir*” (koridor) konsepti tilda bir makondan ikkinchi makonga oʻtish yoʻlini ifodalaydi va odatda uzun ensiz yoʻlak sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, aerodrom sohasida “*couloir aérien*”³⁵, shaklida qoʻllanilib, tasdiqlangan yoʻnalish boʻylab samolyotlar va vertolyotlarning parvozlari amalga oshiriladigan havo makonini bildiradi. Ushbu misolda “*couloir*” (koridor) konseptining “oʻtish” vazifasi saqlangan holda, uning jismoniy makoni oʻzgarmoqda, yaʼni endilikda u ikki xona oʻrtasida emas, ikki koordinata: shahar, davlatlar oʻrtasida joylashmoqda. Hozirda esa, ijtimoiy uy-yumushda “*couloir de nage*” shaklida qoʻllanilib, juda uzun va tor toʻrtburchak shaklga ega boʻlgan suzish havzasi modeli sifatida tushunilmoqda. Ushbu konseptda asosiy boʻlgan koridor oʻzagingning tashqi omillari saqlab qolinsa-da, uning tasavvurimizdagi vazifasi butunlay oʻzgarib ketmoqda. “*Couloir de la mort*” iborasi yuqoridagi misollardan farq qilib, bunda koridor soʻzi metafora yordamida ikki nuqta: hayot va oʻlim oraligʻini ifodalaydi. AQShda esa bu ibora oʻlimga hukm qilingan shaxslar apellyatsiya muddatining tugashini kutayotgan paytdagi qamoqxona majmuini anglatadi. Bugungi kunda semantik maʼno kengayishiga uchrab, aynan mahbuslar kamerasi tushunchasini emas, oʻlim jazosiga hukm qilingan mahbuslarni qamoqqa olish rejimini nazarda tutgan holda, oʻlim jazosini qoʻllaydigan boshqa mamlakatlarga nisbatan qoʻllaniladi.

³⁵ www.larousse.fr

“Yangi so‘zlarning derivatsion yasash usuli va ularning kognitiv jihatlarini” deb nomlangan uchinchi faslda yasama so‘zlarning kognitiv asoslarini o‘rganish jarayonida konseptual derivatsiya, ya’ni inson tafakkurining konseptual tizimini tashkil etuvchi tushunchalar oldin ma’lum ma’noda nomlanganidan so‘ng, tilda ularni yangi lisoniy ma’nolarga ega bo‘lgan yangicha konseptual tuzilmalarga birlashtirish zarurati tushunchasini kiritishi aniqlandi.

Fransuz tilidagi ushbu yangi tushunchalar kognitiv va konseptual jihatdan umumiy xususiyatlarga ega. Masalan, “-isme” suffiksi qo‘shilganda asosiy so‘z inson, ijtimoiy guruh yoki hodisaga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan mafkura yoki xulq-atvor yo‘nalishini ifodalovchi shakl oladi. Masalan, “*wokisme*”³⁶ – bu irqiy va ijtimoiy adolatsizlikni anglashni talab qiluvchi ijtimoiy xatti-harakatni bildiradi.


Fransuz tilidagi “dé-, éco-, bio-” kabi qo‘shimchalar yangi tushunchalarni tilda ifodalashda faol ishtirok etmoqda. Misol uchun “éco-” prefiksining *écoresponsable* (atrof-muhitga mas’uliyatli) yoki *éco-citoyen* (eko-fuqaro) kabi iboralarda ishlatilishi, jamiyatning ekologik mas’uliyatini va barqaror rivojlanishning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. “Dé-” prefiksi jamiyatdagi turli jarayonlar va ekologiya, ijtimoiy o‘zgarishlar, sog‘liqni saqlash hamda huquqiy tizimlar sohalaridagi o‘zgarishlarni ta’riflash uchun ishlatiladi. Masalan, “*déconfinement*” asosan pandemiya davrida cheklovlardan ozod qilish jarayonini ifodalagan bo‘lsa, bu yerda “inkor qilish” yoki “kamaytirish” tushunchasini yaratadi; “*déconsommation*” tushunchasi ekologik va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli iste’molga o‘tish jarayonini bildiradi va bunda “qisqarish” yoki “sekinlashish” ma’nolari mavjud.

Qo‘shma so‘zlar – ikki mustaqil unurning birikishi natijasida murakkab so‘z hosil bo‘lishi jarayoni bo‘lib, unda bir komponent ikkinchisini semantik jihatdan to‘ldiradi va natijada yangi konseptual mazmunga ega til birligi yuzaga keladi. Qo‘shma so‘zlar ma’no ko‘chirish, jismoniy, funksional yoki analogik o‘xshashlikka asoslangan metaforalar orqali hosil bo‘ladi. Misol uchun, predmet yoki xususiyat boshqa bir narsaga o‘xshashligi asosida nomlangan tushunchalar mavjud: “*coeur de boeuf*” – pomidor navi bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan buqa yuragiga o‘xshagani sababli, “buqa yuragi” deb nom berilgan; “*bonnet-de-prêtre*” – patison sabzavoti shakli ruhoniy qalpoqchasiga o‘xshagani tufayli Fransiyaning ba’zi viloyatlarida ruhoniy qalpoqchasi nomini olgan; “*poisson-lion*” o‘zbek tiliga arslon baliqlari deb tarjima qilinadi, bunga sabab arslon baliqning uzun, tikanli suzgichlari arslonning yolli ko‘rinishiga o‘xshaydi, u arslon kabi o‘ljasiga yashirincha hujum qiladi. Bu baliq tashqi ko‘rinishi va yirtqich xatti-harakatlari bilan arslonni eslatadi.

Bobning “*Neologizmlarning konseptual integratsiya jarayonida shakllanishi*” nomli to‘rtinchi faslida, mavzu ob’yekti tahlilida ushbu nazariya nuqtayi nazaridan foydalanish zamonaviy kognitiv tilshunoslikning istiqbolli va samarali yo‘nalishlaridan biri ekani dalillandi. Konseptual integratsiya turli elementlar o‘rtasidagi assotsiatsiya orqali inson ongida mantiqiy maydonlarning birlashuvi jarayonidir. Bu elementlar konseptual maydonlar bilan bog‘liq bo‘lib, aqliy maydonlarning to‘qnashuvi natijasida yangi hodisa yuzaga keladi.

³⁶ Le Petit Larousse illustré // Collectif. – Paris : Larousse, 2023. – 2070 p.

Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy mexanizmlaridan biri bo‘lgan konseptual integratsiya nazariyasi asosida olib borilgan tahlillar neologizmlarning shakllanish jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi. Konseptual integratsiya inson ongida mavjud bo‘lgan turli ma’naviy va semantik elementlarning o‘zaro aralashuvi natijasida yangi ruhiy makonlarning yuzaga kelishidir. Ushbu elementlarning har biri o‘ziga xos konseptual maydonni olib kiradi va ularning to‘qnashuvi yoki birikishi natijasida yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan konseptlar vujudga keladi. Misol uchun, “démocrature” neologizmi bir-biridan farqli ikkita konseptual maydondan démocratie (demokratiya) va dictature (diktatura) tushunchalarini birlashtiradi. Bu yangi konsept klassik demokratiya va diktatura ma’no chegaralarini buzib, oraliq holatni, ya’ni demokratiyaning shakliy xususiyatlarini (saylovlar, parlament, partiyalar, matbuot) saqlab qolgan holda, mazmun jihatdan avtoritar yoki diktatorlik boshqaruviga xizmat qiladigan siyosiy tuzumni ifodalaydi. Bu tushuncha inson ongida kutilmagan kognitiv dissonans hosil qilsa-da, siyosiy tizimlarning zamonaviy o‘zgarishlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi (3-rasm).




3-rasm. “Démocrature” konseptual blendinging yasalish mexanizmi

Ushbu diagramma orqali ikki konseptual birlikning xususiyatlariga asoslangan holda yuz bergan integratsiya jarayonini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, demokratik jamiyatga xos bo‘lgan pluralizm tamoyili (ya’ni fikrlar xilma-xilligi va erkinligi) demokatura sharoitida amalda ishlamasdan, ommaga hukmron tabaqaning g‘oyalarini hech qanday muhokamasiz singdirish va ularni bu g‘oyalar aynan xalq irodasi ekaniga ishonitirish orqali namoyon bo‘ladi.

Boshqa bir misol sifatida, “Merkozy” konsepti ikki davlat yetakchilarining – Germaniya kansleri Angela Merkel va Fransiya prezidenti Nikolya Sarkozilarning o‘zaro yaqin hamkorligi natijasida shakllangan. Bu konsept Yevropa iqtisodiy siyosatini yuritish va moliyaviy inqirozni yengib o‘tish doirasidagi harakatlar bilan bog‘liqdir. Ushbu neologizm davlat rahbarlarining familiyalaridan olingan unsurlarni birlashtirish orqali hosil bo‘lgan: “Mer” + “kozy”. G.Fokonniye va

M.Turnerlarning konseptual integratsiya nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, bu atama ikki asosiy ongli maydonning birlashuvi natijasida shakllangan.



4-rasm. “Merkozy” konseptual blending yasalish mexanizmi

Bu konsept ikki siyosatchining hamkorligida Yevropadagi iqtisodni, Yevropa siyosatida muvozanat va yetakchilik yuzaga kelganini ifodalovchi yangi ijobiy maʼnodagi mental makonni hosil qilishi kerak edi, ammo ularning vaʼdalari amaldagi holat bilan mos kelmagani sababli siyosatchilar tanqidga uchradi va soʻz kinoya sifatida qoʻllanila boshlandi.

Umuman olganda, konseptual integratsiyaning roli tildagi oʻzgarishlarni, yangi tushunchalarning paydo boʻlishini va inson tafakkurining yangiliklarga moslashuvchanligini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon tilning doimiy ravishda rivojlanishini taʼminlab, madaniyat va jamiyatdagi oʻzgarishlarni oʻzida aks ettiradi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Konseptual sohalar taraqqiyoti natijasida hosil boʻlgan neologizmlarning qoʻllanilish xususiyatlari**” deb nomlanib, unda yangi konseptlarning yaratilishida bir-birga uzviy bogʻliq boʻlgan omillar va ularning natijasi tadqiq va tahlil qilindi.

Fransuz konseptologiyasining rivojlanishida quyidagi jarayonlar muhim omillar hisoblanadi:

–ijtimoiy ehtiyojning oshishi va qadriyatlarning oʻzgarishi: demografik koʻrsatkichlar oʻzgarishi, immigratsiya, teng huquqlilik, gender tenglik, feminizm va h.z.;

–ilm - fan yutuqlari: innovatsiya va globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt va h.z.;

–favqulotda holatlar va inqirozlar: ekologik muammolar, sogʻliqni saqlash sohasidagi muammolar, pandemiya, iqtisodiy inqirozlar va h.z.

Bobning “*Ilm-fan va texnologiya sohasidagi neologizmlar*” deb nomlangan birinchi faslida yangi konseptlarning shakllanishi sogʻliqni saqlash, qishloq xoʻjaligi, energetika va atrof-muhit, genetika, ekologik barqarorlik, oziq-ovqat

mahsulotlari ishlab chiqarish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari kabi sohalarda global muammolarni hal etish bilan bog'liqligi yoritilgan. Biroq innovatsiyalarning joriy etilishi yangi texnologiyalar rivojlanishi jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan axloq, xavfsizlik va huquq masalalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda, iqlim o'zgarishi va pandemiya kabi zamonaviy muammolar innovatsion yechimlarning topilishini rag'batlantiradi, o'z navbatida, bu yangi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, ekologik muammolarga nisbatan mavjud sharoitga moslashish usullari (*biorecyclage*)³⁷, ekologik muammolarga qarshi kurash uchun harakatlar va kashfiyot-ixtirolar (*écotaxe*³⁸, *écotourisme*)³⁹, tabiatga inson omili ta'sirining salbiy natijalari (*zone morte, marée verte, continent de plastique*)⁴⁰, tabiatni saqlashni siyosiy tusda da'vat etilayotgani va insoniyatdan shaxsiy javobgarlik talab qilinayotgani mavzuning faqatgina ilm sohasidagi izlanishlar natijasi bo'lib qolmasdan, kundalik turmushga ham ta'sir darajasi keskin oshganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda dunyoni larzaga solgan COVID-19 pandemiyasi nafaqat inson turmush tarziga, balki tillarga ham keskin o'zgartirishlar kiritdi. Mazkur hodisa yangi atamalar va tushunchalarning hosil bo'lishi va keng tarqalishiga olib keldi, yangi so'zlar hosil bo'lib, tarqalar ekan, global inqirozga oid qarashlar, harakatlar va ijtimoiy haqiqatlarning tezkor evolyutsiyasini o'zida aks ettirdi. COVID-19 pandemiyasi neologizmlar (*distanciation sociale, quatorzaine, covid long*) va neosemiyalar (*télémedecine, télétravail*), metaforalar (*guerre contre le virus, épidémie comme catastrophe naturelle, frontière sanitaire, bulle familiale, coupe-circuit*) va o'zlashgan so'zlarning (*lockdown, cluster*) keng o'ziga xos lug'ati paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu yangi tushunchalar insonlarning avval ko'rilmagan vaziyatni to'g'ri tushunishga va uning oqibatiga, ko'plab qiyinchiliklarga tezkor moslashishga harakat qilishlarini namoyish etadi.

“Siyosiy-iqtisodiy faoliyatdagi yangi so'zlar” nomli ikkinchi faslda siyosatdagi yangi konseptlarning jamiyatdagi mafkuraviy yo'nalishlar, ijtimoiy harakatlar va global muammolarni ifodalashdagi o'rni tahlil qilindi. Masalan, “*populisme*”, “*gentrification*” va “*fracture sociale*” kabi neologizmlar zamonaviy siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bugungi kunda Fransiyada shakllangan yangi tushunchalar ko'pincha diniy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yoritish uchun xizmat qiladi. Masalan, “*laïcité ouverte*” atamasi diniy erkinlik va tenglikni ilgari suruvchi konsept bo'lsa, “*islamo-gauchisme*” islom va so'l qanot mafkuralari o'rtasidagi mafkuraviy aloqani ifodalaydi. “*Intersectionnalité*” konsepti ijtimoiy tengsizlik bilan kurashning qo'shilib ketishini aks ettiradi, “*l'évolution féministe*” esa gender tenglik masalalarini anglatadi. Bu kabi yangi konseptlar siyosiy leksikondagi o'zgarishlarni aks ettiradi va jamiyatning yangilanayotgan ehtiyojlariga mos ravishda shakllanayotgan siyosiy paradigmalarning ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, “*macronisme*”

³⁷ Le Petit Larousse illustré // Collectif. – Paris: Larousse, 2021. – 2048 p.

³⁸ Le Petit Larousse illustré // Collectif. – Paris: Larousse, 2000. – 1784 p.

³⁹ Le Petit Larousse illustré // Collectif. – Paris: Larousse, 2005. – 1932 p.

⁴⁰ Le Petit Larousse illustré // Collectif. – Paris: Larousse, 2020. – 2048 p.

Emmanuel Makronning siyosatini, “*souverainisme*” esa milliy suverenitetni ifodalaydi.

Iqtisodiyotda yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi texnologik innovatsiyalar, iqtisodiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Yangi texnologiyalar, masalan, raqamli iqtisodiyot va kriptovalyutalar sohasining xalq turmushiga kirib borayotgani yangi tushunchalarni yaratishni talab qiladi. Shuningdek, moliya bozorlarining rivojlanishi va iqtisodiy faoliyatning yangi modellari, “*disruption*” yoki “*licorne*” kabi atamalarni keltirib chiqarmoqda. Yashil iqtisodiyot va ekologik mas’uliyat (*pollueur-payeur*), yangi biznes shakllari (*coentreprise*, *microentreprise*) va moliya sohasidagi (*open banking*) tushunchalar ham iqtisodiy o‘zgarishlarning natijasi sifatida paydo bo‘lmoqda. Marketing sohasida esa tejamkor strategiyalar va yangi iste’molchilarni jalb etish usullarining nomi, masalan, “*cashback*” va “*couponing*” keng tarqalgan. Bu tushunchalar iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar orqali bozorda, kompaniyalarda va iste’molchilar orasida yangi aloqalarni shakllantiradi.

Yangi ijtimoiy-madaniy mavzudagi leksik birliklar shakllanishining asosiy omillaridan biri ijtimoiy munosabatlar va identifikasiya jarayonlarining rivojlanishi bo‘lib, ayniqsa, jins, jinsiy orientasiya, irq va ijtimoiy tengsizlikka oid masalalarda kuzatilayotgan o‘zgarishlar hamda bevosita ijtimoiy kurash bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jarayon natijasida yangi tafakkur kategoriyalari vujudga kelib, ularni ifodalash va izohlash maqsadida yangi terminlarning yaratilishi bobning “*Ijtimoiy-madaniy hayotga oid neologizmlar*” nomli uchinchi faslida atroflicha tahlil qilindi.

Ayollarning jamiyatdagi irqiy, jinsiy tengsizlikka qarshi harakatlari, bu harakatlarning davlat siyosati va xalqaro ko‘lam kasb etishiga poydevor bo‘luvchi ijtimoiy sohalarda bu muammolarni ifodalashga ehtiyoj qarshi kurashni anglatuvchi “*micro-agression*”, “*woke*”, “*privilege blanc*”, “*fémicide*” kabi tushunchalar, ijtimoiy adolat, tenglik va kamsitish masalalari bilan bog‘liq atamalar hosil qildi.

Ijtimoiy muammolarni anglashda va ularni hal qilishda har bir tushuncha muhimdir, chunki ular adolat va tenglikni ta’minlashga qaratilgan harakatlarning asosiy qismlari hisoblanadi. Misol uchun, “*grossophobie*” – bu odamning vazniga ishora qilib kamsitish va salbiy munosabat bo‘lib, maktab, ish joyidagi tengsizlik kabi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin; “*glottophobie*” – bu lisoniy holatga, sheva yoki talaffuzga asoslangan diskriminatsiya bo‘lib, odamlarni ularning aksenti, mintaqaviy yoki chet ellikka xos talaffuzi sababli kamsitishni anglatadi. Bu ishga qabul qilish, ta’lim yoki ijtimoiy hurmat kabi sohalarda ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar karyerasiga ta’sir qilishi mumkin.

Kurashlar natijasida maqom hamda mavqelarni aniqlash hodisalari bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarni nomlash zarurati tug‘ildi va bu yangi so‘zlarni yaratishni ham talab etdi. Misol uchun, “*école inclusive*” (har bir o‘quvchiga, ularning nogironligi, milliy kelib chiqishi, jinsi, yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, teng va adolatli tahsil olish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan ta’lim modeli – inklyuziv maktab) yoki “*écriture inclusive*” (inklyuziv yozuv – til vositasida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi gender tenglikni ta’minlashga yordam beradigan grafik va sintaktik qurilmalar to‘plami: *les candidates et candidats*.)

Globalashuv va madaniyat almashinuvi adabiyot, musiqa, kino va san'at olamida turli madaniy elementlar bir-biriga singib ketib, yangi lisoniy shakllarni yaratmoqda. Misol uchun, koreys pop-musiqasi (*K-pop*) dunyo bo'ylab mashhur bo'lib, turli madaniyatlarga kirib bormoqda. Global media tarmoqlari orqali G'arbning kino, musiqa, moda va iste'mol madaniyati ko'pincha boshqa mamlakatlarda ustun mavqega ega bo'lib kelmoqda.

Fransuz oshxonasida barcha o'zgarishlar va yangiliklar zamon talabiga muvofiq yemak turlarning paydo bo'lishiga olib keldi: masalan, arzon, ammo yuqori sifatli taomlar tayyorlash konsepti "*bistronomique*"; kimyo va fizikadan foydalanib tayyorlanadigan zamonaviy oshxona turi – "*moléculaire*"; kokteyllar va ichimliklarni aralashtirish san'ati – "*mixologie*"; ko'p bora qayta ishlangan mahsulotlar bilan bog'liq yemak turi – "*ultratransformé, e*"; oldindan bir necha kunlik ovqatni tayyorlash usuli – "*batch cooking*"; turli oshxonalar taomlarini birlashtiruvchi oshxona konsepti – "*fusion*" kirib keldi. Mahalliy dehqonlarni qo'llab-quvvatlashni anglatuvchi "*locavorisme*" – mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish odati, hayvonlardan olingan mahsulotlarni iste'mol qilmaydigan ovqatlanish turiga rioya qilish orqali "*végan*", go'sht iste'molini kamaytirishga asoslangan ovqatlanish tarzi, ba'zan iste'mol qilib, ba'zan voz kechish "*flexitarien, flexitarisme*" so'zlari orqali atrof-muhitni muhofaza qilish uchun o'ziga xos kurash olib borilmoqda.

Iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, yangi mehnat modellariga o'tish ham yangi ijtimoiy-madaniy ma'nodagi so'zlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Gig iqtisodiyotining, ya'ni doimiy ish o'rniga vaqtinchalik yoki loyihaviy ishlarga urg'u berilib, qisqa muddatli shartnomalar yoki mustaqil ishlarga asoslangan mehnat bozori modelining bozor iqtisodiyotini qamrab olishi ijtimoiy turmush tarziga ko'plab ijobiy va salbiy ta'sirlar ko'rsatdi. Misol uchun, mustaqil faoliyat ("*freelance*"), masofaviy ish ("*télétravail*"), hamkorlikda ishlash ("*coworking*" yoki "*cotravail*"), ishdagi doimiy asabiylik natijasida toliqish ("*burn-out*"); motivasiyaning yo'qolishi va besamaralik ("*bore-out*").

Demak, fransuz tilida yangi ijtimoiy-madaniy konsepsiyalar va so'zlarning yaratilishi, jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiradigan murakkab ijtimoiy dinamik jarayonlarning natijasidir. Ular yangi masalalar atrofida jamoat fikrini shakllantirishga turtki beradi, shu bilan birga, shaxs dunyoni qanday tasavvur qilayotgani va unga qanday munosabatda bo'layotganini belgilaydi.

XULOSA

1. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tilning rivojlanishi jamiyatning yangi nominativ vositalarga bo'lgan ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu ehtiyojlar, avvalo, madaniyatlararo aloqalar jarayoni va texnologik innovatsiyalar ta'siri ostida yuzaga keladi. Neologizmlar tilning leksik tizimini yangilash va boyitishning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois neologiya til lug'at tarkibining to'ldirilish jarayonlarini yangi so'zlar yaratish, derivatsiya, boshqa tillardan o'zlashmalar hamda qisqartirilgan shakllardan foydalanish orqali amalga oshirishini o'rganuvchi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ko'riladi. Zamonaviy

neologiya yangi shakllar, yangi ma'nolar va leksik birliklarni kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, til orqali yangi g'oya va konseptlarning ifodalanishini ta'minlaydi.

2. Kognitiv lingvistika doirasida neologizmlar til egalari ongida shakllanadigan yangi yoki transformatsiyalangan konseptual birliklarning verbal ifodasi sifatida talqin qilinadi. Neologizmlarni kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish konseptualizatsiya, nominatsiya va bilimlarning verballashuvi jarayonlariga xos xususiyatlarni aniqlash, shuningdek ularning mavjud konseptlar bilan o'xshash va farqli jihatlarini belgilash imkonini berdi. Neokonseptlarni tadqiq etish natijasida konseptual integratsiya yangi ma'no tuzilmalarini hosil qiluvchi, konseptual elementlarning o'zaro o'xshashligi va farqi asosida ularni birlashtiruvchi yetakchi kognitiv mexanizm ekanligi asoslab berildi.

3. 2001-2023-yillar davomida Larousse va Petit Robert lug'atlarida qayd etilgan neologizmlar materiali asosida fransuz tilining leksik tarkibi o'zlashmalar, dialektal birliklar va turli so'z yasash modellari hisobiga yangilanib borishi aniqlandi. Neologizmlar hosil bo'lishida morfologik (affiksatsiya, so'z qo'shish, abbreviatsiya, kontaminatsiya), sintaktik va semantik usullar eng mahsuldor hisoblanadi. Tahlil natijalari ingliz tilining ta'siri kuchayib borayotganini, frankofon hududlarning fransuz tilini boyitishdagi faol ishtirokini hamda Kvebek fransuz tilining fransuz va ingliz tillari o'rtasida vositachilik vazifasini bajarayotganini ko'rsatdi. Neosemiya, kalkalash va blending jarayonlari yangi leksik birliklar shakllanishining muhim omillari sanaladi.

4. Neologik birliklarning shakllanishi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, kontekst va konseptual integratsiya jarayonlarining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Neologizatsiyaning asosiy kognitiv mexanizmlari sifatida konseptual metafora va elementlarning semantik-kognitiv birlashuvi namoyon bo'ladi. Masalan, semantik neologizmlar (couloir de la mort) til va tafakkurning murakkab o'zaro munosabati natijasida yuzaga keladi, yangi ma'nolar esa murakkab so'zlarda (cœur de bœuf, véloroute) hamda derivatsion modellar orqali amalga oshadi. -isme suffiksi va éco-, dé-, bio- prefikslarining yangi konseptlar hosil qilishdagi yuqori mahsuldorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

5. Konseptual tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, konseptual makonlarning integratsiyasi jarayonida neokonseptlar va neosemiyalar yangi ma'noviy tashkil topish darajalarini egallaydi. Ayrim birliklar dastlabki nominatsiya doirasidan chiqib, ramziy mazmun kasb etadi: xususan, César nomi siyosiy yetakchilik konseptiga aylangan, brûler sa culotte frazeologizmi esa yangi konseptual mazmun tashuvchisiga aylangan. Shaxs nomlaridan hosil bo'lgan birliklar (napoléoniyen, sarkozyste, merkozy) tahlili ularning faqat nom bilan cheklanmay, balki kengroq ideologik va ijtimoiy mazmuni ifodalovchi umumlashtirilgan konseptlar sifatida faoliyat yuritishini ko'rsatdi.

6. Til va jamiyat o'rtasidagi uzluksiz o'zaro ta'sir, ilmiy-texnik taraqqiyot, ijtimoiy ehtiyojlar va favqulodda holatlar ta'sirida yangi konseptual makonlarning shakllanishiga olib keladi. Ekologik va biotexnologik muammolar jamiyat ongidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi yangi konseptual nominatsiyalar (écoresponsable, zone morte, continent de plastique) paydo bo'lishini rag'batlantirdi. Global iqtisodiy

inqiroz, xususan pandemiya, yangi leksik birliklar, neosemiyalar, metaforalar va o'zlashmalarni shakllantiribgina qolmay, mavjud birliklarning semantik transformatsiyasiga ham sabab bo'ldi.

7. Zamonaviy fransuz tilida siyosiy-iqtisodiy neologizmlar ijtimoiy va mafkuraviy transformatsiyalarning til orqali ifodalanish shakli sifatida xizmat qiladi. Siyosiy neologizmlar (populisme, démocratique participative, wokisme) jamiyatdagi mafkuraviy qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ziddiyatlarni konseptualizatsiya qilish vositasi bo'lib xizmat qilsa, iqtisodiy neologizmlar (économie verte, autoentrepreneur, low-cost) mehnat bozori va bozor munosabatlarining yangi modellarini aks ettiradi.

8. Ijtimoiy adolat, gender va ijtimoiy tenglik masalalari bilan bog'liq leksik vositalar (féminicide, privilège blanc, école inclusive) jamoat ongining shakllanishida muhim o'rin tutib, medi diskursda erkinlik, tenglik va inklyuzivlik qadriyatlarining tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Globallashuv va raqamli kommunikatsiya texnologiyalari ushbu neologizmlarning tezkor tarqalishi va mustahkamlanishiga xizmat qilib, fransuz tilining ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarga yuqori darajada moslasha olishini ko'rsatadi.

9. Neologizmlarning lingvistik va kognitiv tahlili til o'zgarishlari jamiyat ongidagi transformatsiyalar va voqelikni anglash jarayonlarining aks-sadosi ekanligini asoslash imkonini berdi. Olingan natijalar neologizatsiya jarayonlarini tadqiq etishda kognitiv yondashuv va konseptual integratsiya nazariyasining yuqori evristik salohiyatini tasdiqlaydi hamda zamonaviy tillardagi neologizmlarning kelgusida sotsiolingvistik va pragmalingvistik tadqiqi etish uchun mustahkam nazariy va metodologik asos yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ТУРАЕВА МАФТУНА АКБАР КИЗИ

**ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАНИЯ И
ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ НЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ
ЯЗЫКЕ**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № В2023.1.PhD/Fil3103.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Киселёв Дмитрий Анатольевич
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Каршибаева Ульжан Давировна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Бобокалонов Одилшоҳ Останович
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «13» марта 2026 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел. (99866) 238-29-37, факс: (99878) 210-00-18, e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 62729). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «19» феврале 2026 года
(Протокол реестра рассылки за № 7 от «19» феврале 2026 года)



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук (DSc),
профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD) по
филологическим наукам, доцент

У.Д. Каршибаева
Заместитель председателя научного
семинара при Научном совете по
присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук (DSc),
профессор

Handwritten signature

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике когнитивный подход всё активнее применяется при изучении различных уровней языка. Исследование неологизмов в этом контексте превращается в особенно актуальное направление, поскольку формирование новых лексических единиц рассматривается как отражение экстралингвистических – социальных, культурных, технологических и интеллектуальных – изменений, воздействующих на язык. Фиксируя способы восприятия изменяющегося мира и его категоризации в языке, неологизмы отражают процессы концептуализации новой реальности. Когнитивный подход позволяет изучать их не только как простые лексические новообразования, но и как результат формирования новых концептуальных структур, возникающих в процессе переосмысления человеческих знаний и опыта. В этом ключе анализ неологизмов французского языка становится значимым направлением, позволяющим выявить динамику языка, а также закономерности развития современного общественного сознания и культуры.

В мировом языкознании исследование когнитивных основ словообразования активно развивается в ведущих научных центрах многих стран, где формируются междисциплинарные подходы к изучению взаимосвязи языка, мышления и культуры. Учёные рассматривают процесс неологизации как проявление ментальных моделей и концептуальных схем, лежащих в основе речевого творчества. В рамках когнитивной лингвистики решаются такие важные задачи, как моделирование концептуальной деривации, описание когнитивных структур, формирующих новые значения, а также выявление роли метафоры и метонимии в создании новых лексических единиц. Кроме того, исследователи анализируют влияние социальных и культурных контекстов на когнитивную мотивацию неологизмов и их интеграцию в языковую систему. Таким образом, когнитивное направление в словообразовании служит основой для глубокого понимания того, как современное человеческое сознание осваивает и вербализует новые явления действительности.

В годы независимости осуществляемые в нашей стране реформы в сфере науки и образования, прежде всего, направлены на повышение качества в данных областях и эффективное использование передовых достижений мировой науки. Это имеет важное значение в решении актуальных задач по подготовке высококвалифицированных и конкурентоспособных специалистов, включая сферу изучения иностранных языков и, в частности, французского, учитывая расширяющееся сотрудничество между Францией и Узбекистаном. Ведь именно наука и просвещение «имеют важное значение не только для молодёжи, но и для повышения интеллектуального и духовного потенциала всего нашего общества»⁴¹. Анализ неологизмов и механизмов их формирования способствует развитию современной методологии

⁴¹ Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 28 января 2020 года // <https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzиеvning-olij-mazlisga-murozaatnomasi>

лингвистики, а также помогает правильно понимать и передавать новые семантические единицы, что особенно важно для переводческой практики. Поэтому лингвокогнитивное исследование французских неологизмов обладает не только теоретической, но и практической значимостью, внося вклад в развитие отечественной и мировой лингвистики и отвечая потребностям современного общества.

Настоящее диссертационное исследование в некоторой степени направлено на решение задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года №УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 29 октября 2020 года №УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”, от 28 января 2022 года №УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, Постановлением Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 “О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап”, от 2 февраля 2024 года №ПП-54 “О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования”, и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

